



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI
O‘ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI HAMDA
YEVROPA VA TURKIY TILLAR KAFEDRASI**



**TASHQI SIYOSIY VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR UCHUN
KADRLAR TAYYORLASHDA TIL TA’LIMI VA TARJIMA MASALALARI**

**(ЯЗЫКОВОЕ ОБУЧЕНИЕ И ВОПРОСЫ ПЕРЕВОДА ПРИ
ПОДГОТОВКЕ КАДРОВ ДЛЯ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИХ И
ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ) MAVZUSIDAGI XVI
AN’ANAVIY ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

TO‘PLAMI

2026-YIL 28-MART

TOSHKENT – 2026



Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası hamda Yevropa va turkiy tillar kafedrası tomonidan 2026-yil 28-martda o‘tkazilgan **“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami JIDU Ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengashning 2026–yil iyundagi majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami // – Toshkent: JIDU, 2026. – 275 bet.

Mas’ul muharrir:

O‘zbek va rus tillari kafedrası mudiri, dotsent
Yevropa va turkiy tillar kafedrası mudiri,
dotsenti, f.f.n
Oliy ta’limdan keyingi ta’lim ofisi boshlig‘i, s.f.n.

M.Abduraxmanova

V.Mamatkasimova

M. Siddiqova

Taqrizchilar:

G.S. Kurbonova – O‘zMU Fransuz filologiyasi kafedrası professori v. b., (DSc)
A.X.Aripova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalarini tahlil qilish va chop etishga tavsiya etish uchun tahririyat–noshirlik guruhi:

Sh. Sh.Xudaykulova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsent v.b., f.f.f.d.(Phd)

Sh. U.Normatova – O‘zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.



MUNDARIJA

<u>SUN’IY INTELLEKT TIL TA’LIMIDA: CHATGPT IMKONIYATLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING METODIK YO’LLARI</u>	7
SH.U.NORMATOVA (JIDU)	
<u>NEMIS TILI TA’LIMIDA MADANIY KOMPONENTNI RIVOJLANTIRISHDA ADABIYOTNING ROLI</u>	13
G.R.ASATOVA (JIDU)	
<u>МЕЖПРЕДМЕТНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЮРИСПРУДЕНЦИИ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩЕГО ЮРИСТА</u>	19
Н.Э.ШАРИПОВА (УМЭД)	
<u>OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA IKKINCHI XORIJIIY TILNI O’QITISH SAMARADORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR</u>	27
K.Q.ISTAMOVA (JIDU)	
<u>O’ZBEKISTONDA CHET ELLIKLARGA TURK TILINI O’QITISH USULLARI VA TA’LIM JARAYONIDA MUAMMOLAR</u>	32
N.SH.XODJAYEVA (JIDU)	
<u>O’ZBEK TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BADIY MATNDAN FOYDALANISHNING YANGICHA USULLARI</u>	43
M.X.SADULLAYEVA (JIDU)	
<u>ADABIYOT DARSLARIDA TABIAT TASVIRIGA OID MATNLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O’QITISH</u>	49
M.F.FOZILOVA (O’zDJTU)	
<u>DIPLOMATIK MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MADANIY RESURSLARNI O’RGATISHNING AHAMIYATI</u>	58
M.D.ABDURAXMANOVA (JIDU)	
<u>TALABA–YOSHLARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY USLUB VA MILLIY SHE’RIYATNING O’RNI</u>	64
SH.S.XUDAYKULOVA (JIDU)	
<u>К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО–КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ–МЕЖДУНАРОДНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	70
Г.М.РАХМАТУЛЛАЕВА (УМЭД)	



<u>O'ZGARUVCHI DUNYODA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA ZAMONAVIY TA'LIM TRENDLARI</u>	76
A.X.ARIPOVA (JIDU)	
<u>QADRIYATLAR VOQEALANISHINING DISKURSIV MODEL</u>	83
G.R.KOMILOVA (ToshDO'TAU)	
<u>ЯЗЫКОВАЯ ПОДГОТОВКА КАК ФАКТОР УСПЕХА В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПОЛИТИКЕ</u>	91
A.B.ATABEKOVA (УМЭД)	
<u>LOTIN TILINING DIPLOMATIYA SOHASIDA QO'LLANISH XUSUSIYATLARI</u>	95
SH.A.XASANOVA (JIDU)	
<u>O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA MILLIY REALIYALARNING LINGVODIDAKTIK IMKONIYATLARI</u>	102
D.D.SAYFULLAYEVA (JIDU)	
<u>ДИСКУРСИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЩИХ РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	105
B.B. МЯКОТА (УМЭД)	
<u>ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	112
T.D.ПОЛАТОВА (УМЭД)	
<u>СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА</u>	120
P.Ш.АБДУМУМИНОВА (УМЭД)	
<u>NEMIS TILI YO'NALISHI TALABALARINING MAMLAKATSHUNOSLIKKA OID BILIMLARINI BADIY MATNLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI</u>	126
A.P.NARMATOVA (JIDU)	
<u>РОЛЬ ГЛАГОЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ</u>	130
Ю.Б.ЮЛДАШБАЕВА (УМЭД)	
<u>ONA TILI TA'LIMIDA O'QIB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLARNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI</u>	134
M.RASULOVA (ToshDO'TAU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA TIL ME'YORI VA VARIANTLILIK</u>	142
M.M.ABIDOVA (O'zMU MAGISTRANTI)	



<u>DAVLAT TILI “YUMSHOQ KUCH” QUROLI SIFATIDA</u>	151
S.D.SALIXOVA (JIDU TALABASI)	
<u>GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA HUQUQIY NEOLOGIZMLAR VA ULARNING QO‘LLANISHI</u>	156
L.M.TURSUNOVA (JIDU TALABASI)	
<u>FERDINAND DYUSHENNING “QAMAR” ROMANINI TARJIMA QILISHDA MADANIY EKVIVALENTLIK MASALALARI</u>	162
V.A.MAMATKASIMOVA (JIDU)	
<u>CHET TILINI O‘QITISHDA “HA” VA “YO‘Q” SO‘Z MA‘NOLARINING BERILISHI XUSUSIDA</u>	167
H.K.IMAMOVA (JIDU)	
<u>INSON TANA TAJRIBASI VA UNING MAQOLLARDA AKS ETISHI</u>	172
Q.N.NAZAROV (JIDU)	
<u>ISPAN TILIDA REKLAMA MATNLARIDA LINGVOKULTURAL KODLARNI O‘RGANISH</u>	180
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>VIRTUAL TA‘LIM MUHITI ASOSIDA ISPAN TILINI O‘QITISHNING INNOVATSION MODELLARI</u>	185
N.K.XAYRULLAYEVA (JIDU)	
<u>ПЕЙОРАТИВНОСТЬ, ВЫРАЖЕННАЯ ПОСРЕДСТВОМ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКЕ</u>	193
M.K.ZARIPOVA (TepГУ)	
<u>МОТИВАЦИЯ И ВАЛЕНТНОСТЬ КАК ФАКТОРЫ РАСШИРЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ «BEHAVIOUR / ПОВЕДЕНИЕ»</u>	199
L.A.ABDULLAEVA (UMЭД)	
<u>ISPAN TILIDAGI ILMIY MATNLARNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA TERMINOLOGIK MOSLIK VA ANIQLIK</u>	205
N.A.SAIDOVA (JIDU)	
<u>NAVIGATING THE INTERPLAY OF QUALITY EDUCATION AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: STRATEGIC IMPERATIVES AND TECHNOLOGICAL INNOVATIONS IN UZBEKISTAN’S PEDAGOGICAL LANDSCAPE</u>	211
N.X.RAXIMOVA, B.A.UMIRZAKOVA (UWED)	
<u>TALABALARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL MATN TAHLILI TEXNOLOGIYALARI</u>	216
O.Q.MO‘MINOVA (O‘zDJTU)	



<u>ZAMONAVIY TA’LIM SHAROITIDA O’ZBEK TILINI O’QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</u>	222
F.R.AZIZOVA (JIDU)	
<u>СТОРИТЕЛЛИНГ КАК ФОРМА ЦИФРОВОГО НАРРАТИВА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ</u>	227
A.C.КАЛБАЕВ (УМЭД)	
<u>TALABALAR TARJIMA FAOLIYATINI KUZATISH VA TAHLIL QILISH METODLARI</u>	233
N.F.BABAMURODOVA (O’zDJTU TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>SUN’IY INTELLEKT VA YOSHLARNING SIYOSIY ISHTIROKI: RAQAMLI DEMOKRATIYA SHAROITIDA YANGI TENDENSIYALAR</u>	239
S.K.QO’SHIYEVA (YMO’IKTI TAYANCH DOKTORANTI)	
<u>ИНТЕГРАЦИЯ ПОДГОТОВКИ К DELF В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ: КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД</u>	247
C.Ю.САЙДАЗИМОВА (УМЭД)	
<u>DONALD J. TRUMPNING INAUGURATSIYA NUTQI: SIYOSIY DISKURS VA TARJIMA STRATEGIYALARI</u>	255
A.R.ABDULLAYEV (JIDU)	
<u>RAQAMLI KORPUS TILSHUNOSLIGI VA SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA O’ZBEK TILI: MILLIY KORPUSNI TAKOMILLASHTIRISH VA SINXRON TARJIMA TEXNOLOGIYALARI</u>	262
SH.J.JAHONOV (JIDU TALABASI)	
<u>РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</u>	269
H.Г. БУКРЕЕВА (УМЭД)	



3. Kadirova, G. Turk tilini chet elliklarga o’rgatishda ishlatiladigan daraja aniqlash imtihonlarining og’zaki malakasini o’lchash masalalari // Tadqiqotlar.uz ilmiy jurnali. – 2024. – No. 2. – B. 6–24.
4. Kemiksiz, Ö., Kılıç, F. G. An Overview of the Coursebooks for Teaching Turkish as a Foreign Language Within the Context of Core Values in Education // Pegem Journal of Education and Instruction. – 2024. – Vol. 14, Issue 2. – Pp. 417–425.
5. Ogur, E., Baştürk, Ş., Şahin, E. Turkish as a Foreign Language Instructors’ Perception Towards Homework // International Journal of Education and Literacy Studies. – 2024. – Vol. 12, Issue 1. – Pp. 98–106.
6. Otaqo’ziyev, A., Ashurova, Z. Turk tilini o’rganishda o’quvchilarga qo’llaniladigan zamonaviy metodlar // IMRAS ilmiy jurnali. – 2024. – No. 3. – B. 260–263.
7. Yereyikılmaz, F. G., Özer, M. Teaching Turkish as a Second Language: Research Trends, Results, and Future Perspectives // Journal of Education and Future (Eğitim ve Gelecek Dergisi). – 2025. – Issue 27. – Pp. 153–169.
8. Yunusova, H. Problems of Teaching Foreign Languages in Uzbekistan and Their Solutions // Educational Research in Universal Sciences. – 2025. – Vol. 4, Issue 1. – Pp. 44–52.

O‘ZBEK TILI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BADIY MATNDAN FOYDALANISHNING YANGICHA USULLARI

M.X.SADULLAYEVA (JIDU)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada til ta’limida badiiy asar o’qitish metodikasi to’g’risida olimlarning fikr–mulohazalari bayon qilingan. Oliy ta’lim bosqichida rus guruhlarida o’zbek tili fanida badiiy asar o’qitish jarayonidagi muammolar tahlil qilingan. Adabiyotshunos olimlarning shu masala yuzasidan qarashlari,*

yechimlari keltirilgan. Til va adabiyot darslarida badiiy matndan foydalanishning zamonaviy “Transformatsiya”, “Onlayn tahrir” kabi metodlari haqida so’z yuritilgan. O’zbek tili darslari davomida foydalanilgan “Raqamli hikoyachilik” metodi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: *badiiy matn, badiiy matn funksiyalari, matnoldi va matnosti topshiriqlar, kompetensiya, “Diskurs”metodi, “Transformatsiya” metodi, “Raqamli hikoyachilik” metodi, “Onlayn tahrir”metodi.*

Abstract. *This article presents the views of scholars on the methodology of teaching fiction in language education. The problems in the process of teaching fiction in the Uzbek language subject in Russian groups at the higher education level are analyzed. The views and solutions of literary scholars on this issue are presented. Modern methods of using fiction in language and literature lessons, such as "Transformation", "Online Editing", are discussed. Detailed information is provided about the "Digital Storytelling" method used during Uzbek language lessons.*

Keywords: *literary text, literary text functions, pre- and post-textual tasks, competence, "Discourse" method, "Transformation" method, "Digital storytelling" method, "Online editing" method.*

Bugungi kunda oliy ta’lim bosqichida o’zbek tili va adabiyoti darslarini tashkil etishda an’anaviy (asosiy rolda o’qituvchi bo’lgan) dars o’tish metodlaridan voz kechib, zamonaviy (markazda o’rganuvchi–talaba turuvchi) dars mashg’ulotlarini o’tkazish masalasi dolzarb bo’lib kelmoqda. Bu jarayonda an’anaviy grammatik qoidalardan va unga doir mashqlardan ko’ra badiiy matn tahlili orqali mavzuni tushuntirish samarali natijalarga olib kelishi mumkin. XX asr taniqli rus tilshunosi V. V. Vinogradov badiiy uslubni boshqa barcha funksional uslublarni (so’zlashuv, ilmiy, rasmiy) o’z ichiga oluvchi va ularni



badiiy maqsad yo'lida sintez qiluvchi eng boy tizim deb ta'riflagan. [Виноградов,1959:115] Chunki til ta'limida badiiy matndan foydalanish til birliklarini kontekstda o'rgatish, obrazli, shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda badiiy–estetik funksiyasi orqali tilning ta'sirchanligini his qilish imkonini beradi. Turli janrlardagi badiiy asarlarga material sifatida tayanmagan tilshunoslikning taraqqiyotini ham tasavvur qilish qiyin bo'ladi.

Badiiy asar tilini tilshunoslik aspektida o'rganish muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, u ma'lum bir davr tilini, uning taraqqiyotini hamda vazifaviy uslublarini o'rganishda yordam beradi, ikkinchidan, yozuvchining til materialidan foydalanishdagi individual o'ziga xosligini aniqlashga ko'maklashadi. Nazariyotchi o'zbek olimlari tomonidan bu borada bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan. Badiiy adabiyot tilini o'rganishga, u orqali grammatik qoidalarni tushuntirishga bag'ishlangan A.G'ulomovning “Badiiy asar tilidagi kamchiliklar haqida” (“Qizil O'zbekiston”,1954), Sh.Shoabdurahmonovning “Mohir so'z san'atkori” (“Qizil O'zbekiston” ,1953), A.Shomaqsudovning “O'zbek adabiy tilining rivojlanishida Hamza ijodining ahamiyati”, “Muqimiy satirasidagi xalq so'zlashuv tili elementlari haqida” (“O'zbek tilshunosligi masalalari” to'plami. SAGU ilmiy asarlari, 1957), “Muqimiy satirasining tili va stili” (“O'zbek adabiyoti masalalari” to'plami, 1959), R.Qo'ng'urovning “A.Qahhorning “Shohi so'zana” asarining leksik va stilistik xususiyatlari”(O'zDU asarlari, yangi seriya, 1956), M.Husainovning “Oydin hikoyalarida xalq maqollarining qo'llanishi” (SamDU asarlari, yangi seriya,1959) kabi qator tadqiqotlar ana shu urinishlar natijasidir. Bu yillarda shoir va yozuvchilarning tili va uslubini o'rganishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari ham yozilgan edi. Qolaversa, yana bir fakt borki, o'zbek “Chexovi” nomi bilan mashhur hikoyanavis yozuvchi Abdulla Qahhor ikki oy davomida rus tilidagi badiiy adabiyotlarni o'qish orqali til bilish darajasini oshirgan va universitet imtihonlaridan qiyinchiliksiz o'tgan edi.

Ushbu real voqea ham badiiy matnni o’qish va tahlil qilish til o’rganishda eng samarali usul ekanligini ko’rsatadi.

Til o’qitish jarayonida badiiy matn ustida ishlash talaba-yoshlarda analitik, kognitiv, kommunikativ, pragmatik kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Ya’ni, o’zbek tili darslarida muayyan asar qahramonini tahlil qilish natijasida talabalar o’z-o’zini va atrofidagi odamlarni tushunadilar, inson shaxsining kamol topishi, rivojlanishi uchun nimalar qilish, qanday xislatlarni egallash zarurligini tahlil qila boshlaydilar. Ularning bunday tushunchaga ega bo’lishlari uchun badiiy adabiyotning bosh qahramonlarini tahlil qilayotganda uning o’sha davr uchun tipikligiga, hayotdagi voqea-hodisalarga munosabatiga, xulq-atvoriga, nutqidagi o’ziga xosliklarga ahamiyat berilishi kerak. Interaktiv metodlardan biri “*Diskursiv tahlil*” metodi haqida to’xtaladigan bo’lsak, ushbu metodda matn tili muayyan ijtimoiy va madaniy diskurs, ya’ni vaziyat doirasida o’rganiladi. Bu metod orqali talabalarda pragmatik kompetensiya shakllantiriladi. [Mustafayeva, 2025:14] Auditoriya topshirig’i sifatida asar bosh qahramonlarining nutqidan kichik (4–5 gapdan iborat) parchalarni olib, ularning nutqiy etiketi, murojaat shakllarini tahlil qilish beriladi. Ta’lim natijasi sifatida undalmalarning ma’noviy vazifasi, sifatlarning stilistik xususiyatlarini farqlash o’rganiladi. (Topshiriq davomiyligini 10 daqiqa qilib belgilasa bo’ladi).

“*Transformatsiya va ijodiy qayta ishlash*” metodi matnning stilistik qiyofasini o’zgartirish orqali til imkoniyatlarini o’rganish ko’nikmasini shakllantiradi. Bu talabaga uslublar orasidagi farqni tushunish va yoza olish imkonini beradi. Talabalarga *Frans Kafkaning “Evrilish”* asaridagi qisqa shakldagi ijaradorlar nutqi yoki ish boshqaruvchi nutqini badiiy uslubdan rasmiy uslubga o’tkazish topshirig’ini berish mumkin. Natijada, ham matnning



lisoniy xususiyatlari tahlil qilinadi, ham uslubiyat qonuniyatlarini qo‘llay olish bilimi shakllanadi. (Topshiriq uchun 10–15 daqiqa ajratish mumkin).

“*Lingvokulturologik tahlil*” metodi o‘zbek tilining boyligini madaniy meros bilan bog‘liqlikda o‘rganishga yordam beradi. Bu metoddan foydalanish maqsadida auditoriyaga topshiriq qilib, berilgan badiiy matndagi milliy mentalitetni aks ettiruvchi maqol, ibora, realiyalarni topish va izohlash vazifasini berish yaxshi samara beradi. Bugungi globallashgan, qadriyatlar unutilayotgan, yoki qorishiq holga kelayotgan bir davrda milliy o‘zlikni saqlash o‘zbek tili ta’limining ustuvor vazifasi sanaladi.

Mashg‘ulotda qo‘llash mumkin bo‘lgan yangicha usullardan yana biri “*Onlayn tahrir*” metodi talaba–yoshlarda sun’iy intellektdan maqsadli foydalanish va uning ustidan o‘z tahririni qila olish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi metod hisoblanadi. Bunda talaba sun’iy intellektga badiiy matndagi voqeaning 3 xil ko‘rinishdagi variantlarini yozdirib, grammatik va uslubiy jihatdan eng to‘g‘ri variantni tanlab, uning ustidan o‘zi onlayn tahrirni amalga oshirishi zarur. Bu mashqlar orqali tahrir qobiliyati kuchayib boradi. “*Hikoya xaritasi*” metodi esa matndagi voqealar rivojini tahlil qilish orqali til birliklarini puxta o‘rganish va amaliyotda qo‘llashga xizmat qiladi. Ushbu metodni dars jarayonida qo‘llash uchun talabalarga badiiy asarning kulminatsiyasi, yechimini aniqlash hamda unda muallif tomonidan qo‘llangan sifatlashlar, o‘xshatish (epitet)lar, fe’l shakllarini izohlash topshirig‘ini bersa bo‘ladi.

“*Digital Storytelling*”, ya’ni “*Raqamli hikoyachilik*” metodi o‘qilgan badiiy matnni qayta, ixcham shaklda yarata olish qobiliyatini rivojlantiradi. 1–bosqich talabalariga uy vazifasi qilib *Cho‘lponning “Kecha va kunduz”* romanining asosiy g‘oyasini zamonaviy kontekstga ko‘chirib, uni 4–5 daqiqalik audio yoki video hikoyaga aylantirish topshirig‘ini berish mumkin. [Kambarova, 2022:149]. Ehtimol, ushbu topshiriqni besh ballik joriy nazorat ishi tarzida qabul qilish va

baholash ham maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda talabaning asosiy fikrni ajrata olish (annotatsiya yoza olish) ko’nikmasi va notiqlik mahorati oshib boradi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuqorida sanalgan metodlar o’zbek tili dars-mashg’ulotlarini samarali tashkil etishda ko’maklashuvchi vositalar bo’la oladi. Masalan, “Raqamli hikoyachilik” metodidan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti 1-bosqich talabalarining o’zbek tili darslarida foydalanganimizda talabalarning mavzuni o’zlashtirish ko’rsatkichi oshgani, badiiy mutolaaga qiziqishi ortgani kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ne’matov H., Sayfullayeva R. “Matnning lisoniy tahlili” – Toshkent, 2014.
2. Yo’ldoshev Q. “Adabiyot o’qitish metodikasi” – Toshkent, 2018.
3. Golish L., Fayzullayeva D. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. Toshkent, “Iqtisodiyot”, 2012.
4. Haqnazarova N. Umumiy, kasbiy va shaxsiy kompetensiyalar. Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. 2021.
5. Matyazova N. Badiiy nutq uslubining o’ziga xos lug’aviy va grammatik xususiyatlari. “Iqtisodiyot va jamiyat” 2024.
<https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-nutq-uslubining-o-ziga-xos-lug-aviy-va-grammatik-xususiyatlari>
6. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. SamDU, 1994.
7. В.Виноградов. О языке художественной литературы государственное издательство художественной литературы. Москва 1959. Оформление художника г. Чеховского.
8. Mustafayeva N. Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda taksonomiyaning roli. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2025.

<https://cyberleninka.ru/article/n/pragmatik-kompetensiyani-rivojlantirishda-taksonomiyaning-rol>

9. Kambarova S. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. “Mahalla va oila” nashriyoti. Toshkent – 2022.

ADABIYOT DARSLARIDA TABIAT TASVIRIGA OID MATNLARNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O‘QITISH

M.F.FOZILOVA (O‘ZDJTU)

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining adabiyot darslarida tabiat tasviriga oid badiiy matnlarni o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari va samaradorligi tadqiq etilgan. O‘quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik didi va tahliliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni asoslab berilgan. Dars jarayonida qo‘llanilgan raqamli texnologiyalar asosida o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi, estetik idroki va o‘zlashtirish darajasining oshishi statistik jihatdan isbotlandi.

Kalit so‘zlar: tabiat tasviri, raqamli texnologiya, adabiyot o‘qitish metodikasi, interaktiv metod, badiiy tafakkur.

Abstract. This article investigates the methodological foundations and effectiveness of using digital technologies in teaching literary texts related to nature imagery in literature classes at general secondary schools. The role of digital technologies in developing students’ artistic thinking, aesthetic taste, and analytical skills is substantiated. Based on the digital technologies applied during the lessons, the improvement in students’ analytical thinking, aesthetic perception, and level of comprehension has been statistically proven.

Keywords: nature imagery, digital technology, literature teaching methodology, interactive method, artistic thinking.